

Ta'sirchan trening

✘ Joriy yilning 7 - 11 - may kunlari Yevropa Ittifoqining «O'zbekistonning qishloq hududlarida suv resurslarini barqaror boshqarish» dasturi doirasida amalga oshirilayotgan BMT Taraqqiyot dasturi va O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining «Texnik salohiyatni mustahkamlash» qo'shma loyihasi bo'yicha Toshkent shahar, M. Ulug'bek tumani, Chust ko'chasi 1 - uyda joylashgan «Platforma» o'quv markazida tashkil etilgan treningda "Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish" kafedrasida assistenti K.Musayev ham qatnashdi va trening mashg'ulotida olgan malaka va ko'nikmalari bilan "Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish" kafedrasida a'zolari bilan o'rtoqlashdi.

K. Musayev 7 - 8, 10 - 11 may kunlari bo'lib o'tgan trening dasturida ko'rsatilgan har bir bandle bo'yicha olingan bilimlar asosida ko'rsatilgan topshiriqlarni bajardi. Treningning oxirgi, ya'ni 11 may 2019 yili "Prezentatsiya qilish shartlari" mavzusida bitiruv ishi taqdimotini himoya qildi. Ushbu Yevropa Ittifoqining «O'zbekistonning qishloq hududlarida suv resurslarini barqaror boshqarish» dasturi doirasida amalga oshirilayotgan BMT Taraqqiyot dasturi va O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining «Texnik salohiyatni mustahkamlash» qo'shma loyihasi bo'yicha olgan bilimlarni kafedrada taqdimot qilib hisobot berdi. Treningda taqdim etilgan va orttirilgan malaka-ko'nikmalar kelgusida o'z ijobiy samarasini berishiga ishonchimiz komil.

INSTITUT MATBUOT KOTIBI RAHIMBOY JUMANIYOZOV